

EZRA POUND SHE'RIYATIDA IMAJISM IFODASI

Nazarova Gulbahor Pirmanovna
f.f.f.d (PhD)

Jo'rayeva Mehriniso Jasurovna
Magistrant, Buxoro Davlat Universteti
(e-mail: m.j.jurayeva@buxdu.uz)

Annotatsiya

Ushbu maqolada Amerikalik shoir Ezra Paund she'rlarida qo'llagan imajismning o'rni va vazifalari tahlil qilingan. Shuningdek, shoir she'rlarining xilma-xilligi, badiiy jozibadorligi hamda o'ziga xos she'riy uslubni yarata olgan shoir mahorati haqida mulohaza yuritilgan. Ezra Paundning aynan imajismga oid she'rlari hozirgi davrda ham sevilib o'qilishi va ularda qo'llanilgan aniq tasvirlar haqida fikr bildirilgan.

Tayanch tushunchalar: Amerika adabiyoti, imajism, she'riy oqim, modernizm

Аннотация. В данной статье анализируются роль и функции имажизма, использованного американским поэтом Эзра Паунд в его стихах. Также обсуждается мастерство и разнообразие рассказов поэта, их художественная привлекательность, сумевшего создать неповторимый стиль письма. Выявлены почему именно имажизмские рассказы Эзра Паунда любимы и читаемы в настоящее время, а также проанализированы литературно-стилистических средств в его произведениях.

Опорные понятия: американская литература, имажизм, поэтическое направление, модернизм

Abstract. This article analyzes the role and usage of imagism used by the American writer Ezra Pound in his writings. There were discussed the diversity of the writer's poems, their artistic appeal, and the skill of the poet, who was able to create a unique writing style. We tried to reveal why the imagism poetry of Ezra Pound is popular, as well as the usage of imagism in his works are analyzed.



Supporting concepts: American literature, imagism , literary movement, modernism

Kirish Imagism - modernizmning bir yo'nalishi bo'lgan, mavhumlikni aniq tafsilotlar bilan almashtirishni maqsad qilgan she'riy oqim bo'lib, ushbu oqim Britaniya va Amerika Qo'shma Shtatlarda 1909-1917 yillar oralig'ida rivojlandi. Imagism, modernistik harakatning bir qismi hisoblansa-da, ammo XIX asr Viktoriya davri she'riyatining axloqiy ohangi hamda sentamentalizm shaklini mutlaqo rad etgan oqim hisoblanadi. Imagist shoirlar o'z ijodida modernistik ijodkorlarning ko'plab manbalardan foydalangan holda o'zlarining yangi she'riy ifodalarini yaratishdi.

Imejismning uchta asosiy o'ziga xos xususiyatlari : oddiylik , ifodalarni aniq qo'llash va umumiylikdan qochish.

Imajism adabiyot tarixida juda ham muhim rol o'ynagan. Chunki aynan shu she'riyat shakli orqali shoirlar asosiy urg'uni she'r mavzusiga emas balki oddiy hamda qisqa, bir nechta so'z orqali tasvirlangan obrazga qaratishgan . Davrning ta'siri tufayli, imagistlar ijodida qofiya qoidalari ahamiyatga ega bo'lmagan va erkin she'r bilan ijodini boyitgan fransuz simvolistlarning ishlari bilan yaqindan qiziqishgan. Imagistlarning bitta oddiy tasvirga e'tibor qaratishida Yapon haiku she'riyatining qadimiy shaklining ta'siri katta bo'lib, Yunon va Rim mumtoz she'riyati ba'zi imagism yozuvchilarning yuqori saviyadagi ijod na'munalarini yaratishida ilhom manbai sifatida xizmat qilgan.

Ezra Pound imagismning asoschisi sifatida qayd etilgan bo'lsa-da, bu harakat birinchi marta ingliz faylasufi va shoiri T. E. Hulme tomonidan ishlab chiqilgan g'oyalarga asoslangan. Hulme ushbu she'riy oqimda kam ijod qilgan bo'lishiga qaramay, uning g'oyalari Ezra Poundni yangi harakatni tashkil etishga ilhomlantirdi.

Paund Hulmening she'riyat haqidagi g'oyalarini soddalashtirgan bo'lib, 1912-yilda Hilda Dulitl bilan birgalikda o'tkazilgan yig'ilishda, Pound imagismni adabiy termin sifatida ilk bor qo'llagan. Paund "Germes yo'llari" (Hermes of the ways) she'rini o'qib chiqqandan so'ng, ba'zi o'zgarishlar kiritishni taklif qilgan. Hilda Dulitlni "H.D. Imagiste" deb nomlab, o'sha yilning oktyabr oyida "She'riyat"("Poetry") jurnaliga chop etishga yuboradi. O'sha yilning noyabr oyida Poundning o'zi Hulmening to'liq she'riy asarlarini nashr etganda birinchi marta bosma nashrda "Imagiste" atamasini ishlatgan.

Paund imagismni "bir lahzada aqliy hamda hissiy uyg'unlikni taqdim etuvchi hodisa" deb ta'riflaydi. Uning etirofiga ko'ra: "Bu shunday "hodisa"ki, uning bir zumda namoyon bo'lishi ozodlik hissini beradi; vaqt va makon chegaralaridan



ozodlik hissi; biz eng buyuk san'at asarlari oldida boshdan kechiradigan misli ko'rilmagan ulg'ayish hissi". 1913-yil mart oyida "She'riyat" ("Poetry") jurnali nashriyotida "Imajistlar amal qilishi kerak bo'lgan qoidalar" ruknida ushbu she'riyatning o'ziga xos qonun-qoidalari nashr etildi.

Ushbu uchta asosiy tamoyillarga asosan she'r yozish majburiy bo'lmagan. Qoidalarning o'z maqsadi bo'lgan ya'ni, imajism yo'nalishida ijod qilishni istagan yosh ijodkorlar ushbu she'riy shakl qanaqa ekanligini bilishlari, uning shakli haqida tushuncha hosil qilishlari uchun aytib o'tilgan. Bundan tashqari, umumiy qoidalar ham mavjud bo'lgan:

- Miqdordan ko'ra sifatni ustun qo'yish
- Tildan bezak sifatida foydalanmaslik
- Mavhumlikni aniqlik bilan qo'shmaslik
- Mavhum sifatlardan foydalanmaslik
- Ta'biy narsalar tasvirlash uchun eng yaxshi obyektir

Natijalar va ularning muhokamasi. Paund ijodidagi "Metro stantsiyasida" she'rini tahlil qiladigan bo'lsak, ushbu she'r ko'p hollarda imajism she'riyatining asl namunalardan biri sifatida tilga olinadi.

In a station of the Metro

The apparition of these faces in the crowd;

Petals on a wet, black bough.

She'r sarlavha bilan birga atigi 20 so'zdan iborat, ammo, qisqa bo'lishiga qaramay, u juda sermazmundir. Pound shahar va tabiiy dunyoni yonma-yon joylashtirish uchun metro bekati tasvirini tabiiy tasvirga qarama-qarshi qo'yadi.

Ushbu she'rning hayratlanarli tomoni shundaki, taqdim etilgan ikkita tasvir bir-biriga qarama-qarshi bo'lib, biri ikkinchisini to'ldiradi va kitobxonga bu juda xilma-xil ob'ektlarni - metro stantsiyasini va nam daraxt shoxlarini yangi yoki boshqacha tarzda "ko'rishga" yordam beradi.

Ramziy jihatdan qaralganda she'r ikki qarama-qarshilik: shahar hayoti va tabiiy dunyoni yonma-yon qo'yganga o'xshaydi. Bunda inson tomonidan yaratilgan dunyoning tabiiy dunyodan qanchalik farq qilishini ko'rish mumkin. Shu bilan birgalikda, ularni juda yaqin joylashtirish orqali har ikki olam bir biriga qanchalar o'xshashligini ta'kidlash mumkin.

Ayniqsa, birinchi va ikkinchi qatordagi obrazlar o'rtasidagi o'xshashlik yoki farqni baholashda "apparition" so'zi muhim ahamiyatga ega. Bir tomondan, bu so'z chalg'itishi ham mumkin. Olomon ichida ko'p odamlarning yuzlari sharpali, loyqa ko'rinishi shunchalik zerikarli va bir xil tasvir bo'lishi mumkin. Lekin boshqacha



qilib aytganda, hamma odamlar qaysidir manzillarga shu qadar tez oshiqadiki, ularning yuzlari bir-biridan farq qilmaydi, kitobxon esa tabiatning go'zal tasvirini o'qib biroz o'ylanadi va dunyo tashvishlaridan chalg'iydi.

Darhaqiqat, she'rda tasvirni shovqinli, gavjum metro bekatidan tabiat dunyosining shaharga nisbatan tinch va nafis qismini tasvirlashga o'tishi yoqimli o'zgarish bo'lib tuyuladi. Shoir, shuningdek, texnologiya tobora ko'proq qamrab olgan dunyoda tabiatni birinchi o'ringa qo'yish kerakligi yoki hech bo'lmaganda bu haqda o'ylab ko'rish taklifini beradi. Ehtimol, shoir metro bekati qanday qilib bir vaqtlar o'rmon bo'lishi mumkin bo'lgan joyni siqib chiqargani, daraxtlarni shoshqaloq odamlar va shovqinli poyezdlar bilan almashtirilganligi haqida o'ylayotgan bo'lishi mumkin.

Albatta, she'rda ushbu fikrlar aksi nazarda tutilgan bo'lishi ham mumkin: inson dunyosi tabiatdan unchalik uzoq emasligini va aslida tabiiy dunyoning ajralmas qismi ekanligini anglatadi. E'tibor bering, "apparition" shuningdek, bir tasvirni boshqasiga singib ketishini ham anglatadi. Bu talqinda metro bekatida yo'lning ikki tomonida tizilgan arvoq misoli yuzlab kitobxonning ongida shoxning ikki tomonida osilgan gulbarglar timsolida shakllantiradi. Yoki, boshqacha talqinda shaharning o'zini daraxt deb tasavvur qilib, har bir metro bekati o'sha daraxtning turli "shoxlari" va odamlar daraxt barglarini ifodalaydi. Metro shaharning turli qismlarida foydalaniladi, odamlar va yuklarni tashish imkonini beradi - xuddi daraxt shoxlari ko'plab barglariga suv yetkazgani kabi. Bundan tashqari, ikkala tasvir ham o'tkinchilik tuyg'usini bildiradi, chunki ikkalasi ham barqaror emas. Birinchisida, odamlar bir manzildan ikkinchi manzilga sayohat qilishadi; tez orada yangi yo'lovchilar bilan almashtiriladi. Ikkinchisida, daraxt nam bo'ladi - ehtimol yomg'irdan - va go'yoki quriydi, uning barglari oxir-oqibat tushadi va yangilari bilan almashadi. Qaysidir ma'noda, bu tasvirlar juftligi lahzaning o'tkinchiligi, hayotning takrorlanmasligi, yakuni borligini anglatadi.

Pound shu tariqa, shahar hayoti va tabiat dunyosi keskin bir-biridan farqlanishiga qaramay, ularni qaysidir ma'noda bir xil umumiy qonuniyatlarga amal qilishi mumkinligini ochib beradi. Imajizm she'riyati tamoyillariga to'liq amal qilingani yaqqol ko'rinib turibdi: mavhumlikka yo'l qo'ymagan, aniq tasvir ifodalangan. Shuningdek, musiqiy iboralar ketma-ketligiga urg'u berilgan.

She'r shakliga to'xtaladigan bo'lsak u juda ham ixcham, aniq tasvirlarga ega. Imejist shoir uchun ma'no yaratishning asosiy usuli bu obraz bilan bog'liq tavsiflar emas, balki obrazning o'zidir. Poundning "Metro stantsiyasida" kabi she'rlari 20-asr boshlarida ko'plab boshqa shoirlarni ham xuddi shunday shakldagi she'r yozish uchun ilhomlantiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi. She'ning qisqaligi va tabiiy



dunyoning oddiy jihatiga e'tibor qaratilishi uni yapon xaykusiga juda o'xshash qiladi, garchi u bu shaklga to'liq mos kelmasa ham.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, zamonaviy adabiyotni imajizm she'riyatisiz tassavvur qilish mushkul, chunki ushbu she'riy shakl o'zining takrorlanmas xususiyatlari, hayotni real hamda haqqoniy ko'rsatish orqali ko'pchilikni etiborini qozongan. Aynan shu harakat zamonaviy ingliz va amerika she'riyatining ilk sahifalarini ochishga yordam berdi. Ezra Pounddek buyuk yozuvchilar ushbu she'riy shaklni mukammal darajaga yetkazdi.

Adabiyotlar ro'yxati :

1. Ayers, David (2004). H. D., Ezra Pound and Imagism, in *Modernism: A Short Introduction*. Blackwell Publishers.
2. Pound (1918). "A Retrospect". Reprinted in Kolocotroni et al. (1998),
3. <https://poets.org/text/brief-guide-imagism>
4. <https://www.encyclopedia.com/literature-and-arts/literature-english/american-literature/imagist>
5. <https://www.poetryfoundation.org>

